



INGLIZ TILINI O'QITISH METODIKASIDAGI YANGICHA YONDASHUVLAR

Zoxidova Sevinch Zoxid qizi

SamDCHTI Ingliz tili fakulteti Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich 2325-guruh talabasi

Zubaydova Nilufar Ne'matullayevna

Ilmiy raxbar: SamDCHTI ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada siz bugungi zamonaviy dunyoda ingliz tilini o'qitish metodikasidagi yangicha o'zgarishlar va yondashuvlar haqida o'qiysiz. Maktablarda va oliy ta'lim muassasalarida dars berayotgan o'qituvchilarning bugun qanday zamonaviy texnologiyalar va metodlardan foydalanib dars o'tayotganlari haqida bilib olasiz.*

Kalit so'zlar: *texnologiya, o'qituvchi, o'quvchi, talaba, maktab, oliy ta'lim muassasasi, ingliz tili, metodlar, bilim, tajriba, moharat, tarqatmalar.*

Bugungi zamonaviy dunyoda til o'rganish va o'qitish kundan kun rivojlanib bormoqda. Turli sohalarda mutaxassislar chet ellik mutaxassislar bilan hamkorlik qilayotganligi ko'rsatgichi yuqori bo'lganligi sababli, chet tilini o'rganishga bo'lgan talab ham yuqori bo'lib qoldi. Zamonaviy texnologiya va usullardan foydalanib har qanday yosh toifasidagi inson o'ziga kerakli bo'lgan tilni o'rganishmoqda. Bunday bilimlarni insonlar dastlab, maktabgacha ta'lim muassasalarida keyinchalik maktab va oliy ta'lim yurtlarida, bundan tashqari, qo'shimcha o'quv kurslarida o'rganishmoqda. Psixologiyaga ko'ra, chet tilin yosh bolalar kattalarga nisbatan tez va oson o'rganadilar. Televizorlarda ko'rsatayotgan multfilmlar, kinolar orqali ham bolalar ko'plab narsalarni o'rganishmoqda, bundan tashqari bugun chet tillarini bepul va samarali o'rgatadigan telekanallarning ham ochilishi bolalarga qulaylik yaratyapti.

Hozirda o'qituvchi o'z faoliyati davomida foydalana olishi mumkin bo'lgan ulkan tajriba bazasi mavjuda va bular kundan kunga yanada boyib bormoqda. Internetda yangicha metodlarning ko'payishi, yuksak darajaga ega bo'lgan o'qituvchilarning online dars berishlari ham o'qituvchilar uchun yangi metodlarni o'rganishiga imkon yaratmoqda. Darvoqe, fanni o'zlashtirish biroz murakkab jarayon. O'zga tilni o'z tilidek mukammal o'zlashtirishda esa pedagogning mahoratiga bog'liq. Bunda yangi pedagogik uslublardan foydalanish ham muhim ham samaralidir. An'anaviy darsdan ko'ra o'quvchi yangi texnologiyalardan foydalanib o'tilgan darsda o'zlashtirish ko'rsatkichi yuqori bo'ladi. Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilib, pedagogik faoliyat samaradorligini oshiradi hamda o'qituvchi o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptiradi. Bundan tashqari, o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlaydi. o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Hamda o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga



chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi. Shuningdek, pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g'oyalarning ustivorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

Bundan tashqari, til o'rganishda muloqot asosiy o'rin tutadi va kommunikativ tilni o'rgatish strategiyalari o'quvchilarning hayotiy vaziyatlarda samarali muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Muhokamalar, bahslar va taqdimotlar kabi tadbirlarni o'z ichiga o'tkazish orqali o'qituvchilar o'quvchilarga nutq va tinglash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berishlari va ingliz tilini sinfdan tashqarida qo'llashda ishonchni mustahkamlashlari mumkin. Rolli o'yin va simulyatsiya mashqlari o'quvchilarga kontekstda tilni mashq qilishning o'ynoqi, ammo samarali usulni taklif qiladi. O'zini restoranda mijoz sifatida ko'rsatish yoki biznes bitimi bo'yicha muzokaralar olib borish, bu mashg'ulotlar talabalarga til ko'nikmalarini real ssenariylarda qo'llash va ravonlik va spontanlikni rivojlantirish imkonini beradi. Umumiy qilib aytganda, chet tilini o'rgatishda, bolalarga amaliy tajribalardan foydalanish va rolli o'yinlar, rangli kartochkalardan foydalanish samarali yordam beradi. O'qituvchilar o'quvchilarning turli xil o'rganish uslublari va qobiliyatlariga ega ekanligini tan olishlari va darslarini barcha o'quvchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun moslashtirishlari kerak. Birinchi marotaba darsga kirayotgan o'qituvchi turli xil metodlardan foydalanib sinfdagi o'quvchilarning qanchasi ko'rish orqali, qanchasi eshitish orqali, qanchasi harakatlar orqali o'rganishini bilib olishi va bundan keyingi darslarida zamonaviy metodlardan foydalanib dars o'tishi va o'quvchilarni o'ziga jalb eta olishi va fanga bo'lgan qiziqishini orttirishi lozim. Ingliz tilini o'qitishning yana bir samarali usuli hamkorlikda o'rganishdir. Guruhlarda yoki juftlikda ishlash orqali talabalar o'zlarining muloqot qobiliyatlarini mashq qilishlari, fikr almashishlari va bir-biridan o'rganishlari mumkin. Bunday yondashuv talabalarga nutq va tinglash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, jamoada ishlash va hamkorlik tuyg'usini rivojlantirishga yordam beradi. O'qituvchi o'quvchilarga nisbatan ochiqko'ngil bo'lishi lozim va o'quvchilar bilmagan narsalarini bemalol so'ray olishlari va o'qituvchi bilan do'stona munosabatda bo'lishi kerak.

Chet tilini o'rgatishda o'qituvchilar uchun turli xil metodlar bor va bu o'quvchilarning bilimini rivojlantirish va mustahkamlashda samarali usul hisoblanadi:

1. "B-B-B" (bilamiz, bilishni xoxlaymiz, bildik) metodi. Bu usul dars jarayonida o'quvchilarning matnni tushinishini, uni tahlil qilish qobiliyatining o'sishi uchun kerakli usul hisoblanadi.

2. "Aqliy hujum" (Brainstorming) - g'oyalarni generatsiya qilish metodi hisoblanadi. Bu usulning mohiyati o'quvchilarda jamoa hamkorligi asosida muammo yechish jarayonlarini vaqt bo'yicha bir qancha bosqichlarga : g'oyalarni generatsiyalash, ularni tanqidiy va konstruktiv holatda ishlab chiqishdan iboratdir.

3. "Kviz kartochkalar" (Quiz cards) - bunda o'quvchilarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma o'quvchilarlar bir vaqtda darsda ishtirok etishini ta'minlaydi, bu esa vaqtni ancha tejaydi.



4. "Klaster" usuli. Klasterlarga ajratish o'quvchilarga biror bir mavzu yuzasidan erkin va ochiq tarzda fikr yuritishga yordam beradigan pedagogik strategiyadir. Bu metod asosan yangi fikrlarni uyg'otish, mavjud bilimlarga yana yangi fikr qo'shish uchun samarali usuldir.

5. "Insert" metodi. Bunda o'quvchilarga biror matn yoki hikoya taqdim etiladi va o'quvchilardan uni qayta gapirib berishni talab etiladi. Bu usul matn bilan ishlanganda faollikni, kuzatuvchanlikni va tushunishni qo'llab-quvvatlash uchun kuchli metod hisoblanadi.

Ushbu metodlardan foydalanib dars o'tish vaqtini ham tejaydi, o'quvchilarning bilimini rivojlantirib, tez o'ylash va fikrlashga undaydi va bundan tashqari, darsni mustahkamlashga yordam beradi. Shu bilan birgalikda, o'qitish jarayonida har bir darsda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlardan unumli foydalanish o'quvchilarni mustaqil va erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga jiddiy yondashishiga, bilim olishga qiziqishlarini kuchaytirishga yordam beradi. O'quvchi dars jarayonida o'yinlarni ingliz tilida o'ynasagina ingliz tiliga qiziqishi ortadi va shu bilan birga ingliz tilini yanada chuqurroq o'rganadi. Bolalar o'quv jarayoniga o'yinlar va qiziqarli tadbirlar jalb qilinganda yaxshiroq o'rganadilar. Masalan, "Scrabble" kabi oddiy stol o'yinlari, "Hangman" kabi onlayn o'yinlar yoki "Wordpower" kabi ilovalar bolaning ingliz tilini yaxshilash va eshitish usuli orqali unga imlo va talaffuzni o'rgatish uchun ishlatilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, dars o'tishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va turli xil metodlardan foydalanish bolalarning darsga bo'lgan qiziqishini orttiradi va ko'proq bilim olishiga yordam beradi. Bundan tashqari, maktab va bog'cha yoshdagi o'quvchilarni ikkinchi tilni o'rganishga qiziqtirish va imkoniyat yaratish yaxshi kadrlarni yetishib chiqishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xatamova N.Q., Mirzayeva M.N. "Ingliz tili darslarida qo'llaniladigan interfaol usullar" (uslubiy qo'llanma), Navoiy. 2006, 40 bet.

2. Ahrorovna, N. N., & Marjona, M.. (2021). Essential Memory Improving Techniques in Teaching and Learning Process. "ONLINE - CONFERENCES & PLATFORM, 62–68. Retrieved from <http://papers.online-conferences.com/index.php/titfl/article/view/589>

3. Saidova, M. U. (2019). Lexical Stylistic Devices and Literary Terms of Figurative Language. International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE) ISSN, 2277-3878. <https://www.ijrte.org/wp-content/uploads/papers/v8i3S/C10541083S19.pdf>.

4. Муминова, Ф. М. Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish / Ф. М. Муминова. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 18 (308). — С. 590-592.



5. Nilufar Ne'matillaevna Zubaydova. The Role Of Country Studies In Teaching English. *Theoretical & Applied Science*, 310-312, 2020.
6. R. A Utkurovich, R. G Utkurovna. "Teaching English Language To Primary Level Pupils At School" *Ijodkor O'qituvchi* 3 (36), 103-105, 2024.